



Dospanova Dilara Urakboyevna – Toshkent axborot texnologiyalari universiteti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiyot darslarini samarali o'qitishda mulohazalar (diskussiyalar)ning o'rni va ahamiyati o'rganiladi. Mulohazalar o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada adabiyot o'qitishda mulohazalarni tashkil etishning innovatsion usullari va o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar tahlili keltirilgan..

Kalit so'zlar: adabiyot darsi, mulohaza, ijodiy fikrlash, o'quvchilar faolligi, pedagogik texnologiyalar, foydali manbalar, qadriyat, ilm, tarix.

Kirish. Adabiyot fanini o'qitish maqsadi nafaqat o'quvchilarga badiiy asarlarni tushunib o'qitish, balki ularda mustaqil fikrlash, ma'naviy yuksalish va hayotni anglash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shu sababli adabiyot darslarida mulohazalar tashkil qilish alohida ahamiyatga ega.

Har qanday jamiyatning taqdiri, unda yashaydigan insonlar tafakkuri va axloqining qandayligi bilan belgilanadi. Jamiyatni nurli kelajak sari yetaklash ham, tubanlik qa'riga tortish ham shunga bog'liq. Shuning uchun ham jamiyat ahli, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy va intellektual kamoloti muhim hayotiy masala hisoblanadi. Bu hol butun ta'lim tizimi, undagi darslik hamda metodik qo'llanmalarning shu yo'nalishga solinishini taqozo qiladi. Ular mutaxasis taylorlashga emas, balki sog'lom fikrli va ezgu ma'naviyatli odam shakllantirishga xizmat qilishi lozom. Milliy pedagogika ilmi ham ma'naviy barkamol avlod tarbiyalsh yo'llarini tadqiq etmog'i zarur¹.

Asosiy qism. Adabiyot o'qitishning zaruriyati – insonning ma'naviy va intellektual rivojlanishi, milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni avlodlarga yetkazish va jamiyatda estetik didni shakllantirish kabi asosiy maqsadlarga erishish uchun muhim ahamiyatga ega. Quyida uning asosiy zaruriyatlarini haqida tahlil beramiz:

1. Ma'naviy kamolot – adabiyot o'qitish orqali shaxsda axloqiy qadriyatlar, mehr-oqibat, insonparvarlik va vatanparvarlik kabi sifatlar shakllanadi. Tarixiy asarlar milliy o'zlikni anglashga, zamonaviy asarlar esa hozirgi davrning dolzarb masalalarini tushunishga yordam beradi.

¹Muhammad Yasin Eldash, Razia Sadri Sarepul ADABIYOT O'QITISHDA MUSTAQIL FIKRLASHNING AHAMIYATI // Academic research in educational sciences. 2023. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/adabiyot-o-qitishda-mustaql-fikrlashning-ahamiyati> (дата обращения: 28.11.2024).





2. Til va ifoda madaniyatini rivojlantirish – adabiyot til madaniyatini rivojlantirishning eng samarali vositasidir. Adabiy asarlarni o‘qib, o‘quvchilar so‘z boyligini oshiradi, go‘zal va ravon fikrlashni o‘rganadi, nutq madaniyatini shakllantiradi.

3. Dunyoqarashni kengaytirish – adabiyot inson dunyoqarashini kengaytiradi, turli hayotiy masalalar va insoniy munosabatlarga chuqur yondashuvni shakllantiradi. Bu esa yosh avlodni ilm-fanga va ijodkorlikka rag‘batlantiradi.

4. Tarixiy va madaniy merosni saqlash – adabiyot darslari o‘quvchilarga milliy tarix va madaniyatni o‘rganish, qadrlash imkoniyatini beradi. Buyuk shoirlar va yozuvchilarning ijodi orqali madaniy merosni avlodlarga yetkazish – adabiyot o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biridir.

5. Shaxsiy ehtiyojlarni qondirish – adabiyot o‘quvchilarda go‘zallikni his qilish, estetik didni shakllantirish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun maydon yaratadi. Har bir insonning hayotiy maqsadlari va qiziqishlariga mos keladigan asarlar orqali o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyati mavjud.

6. Kreativ fikrlashni shakllantirish – adabiyot fikrlash va ijod qilishni o‘rgatadi. O‘quvchilar asarlarni tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish va muallifning g‘oyalarini anglash orqali kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Adabiyot darslari orqali insonda nafaqat bilim, balki hissiyot va estetik didning uyg‘unligi shakllanadi. Shu sababli, adabiyot o‘qitish ta’lim tizimining ajralmas va muhim qismidir.

Xulosa. Adabiyot darslarini o‘qitishda mulohazalar o‘quvchilarning faolligini oshirish, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ushbu metodlarni tizimli ravishda joriy etish orqali darslarning samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Adabiyot darslarini o‘qitishda informatika vositalari, aynan veb texnologiyalardan foydalanish ushbu darslarni o‘zlashtirilishi darajasini o‘stiradi. O‘quvchilar uchun mavzuni tushunish va mavzugi har bir ma’lumotni qabul qilish samaradorligini oshiradi².

Adabiyot o‘qitish jarayonida o‘quvchi tafakkuri mustaqilligiga erishish uchun o“qituvchidan o“quvchilarni darslikda berilgan tushuncha-yu xulosalarning qanchalik to‘g‘riligini tekshirish va dalillashga, bu yo‘lda eng qulay usul va metodlardan foydalanishni o‘rgatishga, har bir narsa-hodisa yuzasidan mustaqil fikr yuritishga, vaziyatga ijodiy yondashishga, birovlarga, hattoki o‘qituvchisiga ham, yoqishyoqmaslidan qat‘i nazar, o‘z fikrini aytishga o‘rgatish kerak bo‘ladi.

²Mavlyanova Shahodat Djambulovna ADABIYOT FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARI // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy journali. 2022. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/adabiyot-fanini-o-qitishda-interfaol-usullari> (дата обращения: 28.11.2024).





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [www.ziynet.uz.](http://www.ziynet.uz)
2. ADABIYOT O'QITISH METODIKASINING ASOSIY TAMOYILLARI. (2024). "XXI ASRDA INNOVATION TECHNOLOGIES, SCIENCE AND EDUCATION TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" Nomli Respublika Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi, 2(5), 399-402. <https://universalpublishings.com/index.php/itftdm/article/view/5791>
3. [https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/download/15793/11370/11147.](https://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/download/15793/11370/11147)
4. Mavlyanova Shahodat Djambulovna ADABIYOT FANINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARI // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2022. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/adabiyot-fanini-o-qitishda-interfaol-usullari> (дата обращения: 28.11.2024).

